



## XIV ASR ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

*Islomova Sitora Bazarbayevna*

*Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va Psixologiya fakultet tyutori*

*Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika ta'lim yo'naliishi*

*101-guruh talabasi - Nurmamatova Sevara Sobirovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola XIV asrning oxiri va XVI asrlarda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji haqidadir. Movaraunnahrda tarbiya va maktab uchun ko'pgina allomalarimiz o'z hissasini qo'shganlar. Bu islohotlar bu davrda bosh islohotchisi sifatida Amir Temurni olishimiz mumkin. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fazillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Tarbiya, maktab, madaniyat va ilm-fan rivojlandi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, maktab. Pedagogik fikrlar, so'fiylik, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Jalolliddin Davoniylarning pedagogik g'oyalari.

**Аннотация:** Эта статья датируется концом XIV и XVI веков. Речь идет о развитии образования, школы и педагогических идей в Моварауннахре на протяжении веков. Многие из наших ученых внесли свой вклад в образование и школу в Моварауннахре. Главным реформатором этих реформ в этот период можно считать Амира Темура. С установлением централизованного государства Темура в Моварауннахре снова начали процветать наука, культура и образование. В годы правления Амира Темура в Самарканд были привезены ремесленники, ученые, художники, инженеры из многих городов мира, а их богатый опыт и творческие способности нашли широкое применение в области науки, культуры, строительства. Развивались образование, школа, культура и наука.

**Ключевые слова:** Образование, школа. Педагогические идеи, суфизм, педагогические идеи Абдурахмана Джами, Мирзо Улугбека, Захириддина Мухаммада Бабура, Алишера Навои, Джалолиддина Давани.

**Abstract:** This article dates back to the end of the XIV and XVI centuries. It is about the development of education, school and pedagogical ideas in Movaraunnahr in the centuries. Many of our scholars have contributed to education and school in Movaraunnahr. We can take Amir Temur as the main reformer of these reforms in this



period. With the establishment of the centralized state of Temur, science, culture and education began to flourish again in Movarounnahr. During the reign of Amir Temur, artisans, scientists, artists, engineers from many cities of the world were brought to Samarkand, and their rich experiences and creative skills were widely used in the fields of science, culture, and construction. Education, school, culture and science developed.

**Key words:** Education, school. Pedagogical ideas, Sufism, pedagogical ideas of Abdurahman Jami, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Babur, Alisher Navoi, Jalolliddin Davani.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madanivatining davomi sanaladi. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. So'fiylik ta'limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo'lib, bytun\_\_\_\_\_musulmon mamlakatlari. shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So'fiylik butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. So'fiylik musulmon sharqi xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergen ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qildi.

So'fiylik ko'p qirrali oqim bo'lib, "sof, "yagona" so'fiylik hech qachon bo'limgan. U turli ko'rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo'lgan. Ammo har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondoshib, uni o'ziga xos yo'l, qarash asosida talqin etgan. So'fiylik ta'limoti g'oyalaringa e'tiqod va amal qiluvchi kishilar so'fiylar deb nomlanadi. So'fiylik ta'limotida komil inson - bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. So'fiylar ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni balo qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g'oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi - bu ularning ideali, orzusi bo'lgan. Shunday bo'lsada, ular komil, etuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashganlar. Komillikning rnezoni ikki narsa: birinchisi, axloq, ya'ni, mo'min-musulmon, solih inson bo'lish, ikkinchisi, o'z-o'zini tanishdan iboratdir. So'fiylik ta'limoti va uning mohiyati xususida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, mazkur manbalar so'z yuritilayotgan ta'limotni o'rganishda boy manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asari so'fiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir. So'fiylik nazariyasiga ko'ra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujassamlanishi. Xudo barcha ko'rindigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq-dunyoviy ruh

shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertami-kechmi u bilan qo'shiladi. Amaliy qism axloqiy me'yor va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimidan iborat bo'lib, bu me'yor va qoidalar xudbinlikva shaxsiy manfaatlardan o'zini tiyishni talab etadi.

So'fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy hayotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo'lib xizmat qildi. So'fiylik asosan uch oqimga mansub: So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komilllikka erishish yo'lida quyidagi to'rt bosqichni o'tishi kerak deb hisoblaydilar.

Birinchi bosqich - Shariat. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat-qonun bo'lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

Ikinchi bosqich -Tariqat. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma'naviv muhabbatni takomillashtirib. xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, rujni nurlantiruvchi faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich- Ma'rifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi - xudo ekanini, o'zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg'un ekanligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibru havo, manmanlik hamda shon-shuhrat be'mani bo'lib ko'rindi. Shunda u orif, ya'ni, bilimli va xudoni tanigan inson bo'ladi.

To'rtinchi bosqich- Haqiqat Mazkur bosqichda so'fiy xudoning dargohiga etishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, vahdat (tavahhud) tashkil etadi va shu asosida inson foni, ya'ni "anal-haq" bo'la oladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movaraunnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnak topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr o'rta Osiyoda Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi beziz emas. Chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, san'atkorlar, muhandislar, olimu fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabxalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'u-rog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, huquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Sa'diy, Al-Korazmiy, Al-Farg'oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziyy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi. Sohibqiron Temur va



temuriylar davrida - she'riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug'atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me'morshunoslik, tijorat - tadbirkorlik, tarjimonlik, hattotlik, jo'g'rofiya va elshunoslik kabi boshqa o'nlab dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo'lga qo'yildi. Amir Temur hukmronligi davrida o'rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va san'atning rivojida, madrasalarda ta'lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muhim omil bo'ldi.

Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Muhammad Tarag'ay – Mirzo Ulug'bek (1394-1449) Amir Temur sulolasiga mansub ulug' zot, ulkan davlat arbobi va buyuk dahodir. Amaliy faoliyatida davlat arboblikni olimlik, olimlikni esa davlat arboblik bilan qo'shib olib borish Mirzo Ulug'bekka xos bo'lgan nodir fazilatdir. Mirzo Ulug'bek insoniyatning bir necha ming yillik tafakkur boyliklarini, madaniy ma'naviy, ilmiy-falsafiy bilimlarini, tarixiy, diniy, axloqiy merosini, umumbashariyat xazinasiga ulkan ulush qo'shgan buyuk allomalar g'oyalari, qarashlari va ta'limotlarini katta qiziqish, zavq-shavq bilan o'rgangan. U yoshlik kezlaridan boshlab mashhur yunon olimlari Aflatun, Arastu, Gipparx, Ptolomey, Bitlimus va Kolius ta'limotlarini sinchiklab o'rganib, siyosiy, ilmiy-amaliy faoliyatida, kuzatish vatadqiqotlarida ulardan unumli foydalangan. Shunday qilib, Mirzo Ulug'bekning milliy va umumbashariy ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik ta'limotlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. O'rta asr Sharq madaniyati va adabiyotining buyuk namoyandasi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483yil 14-fevralda Andijonda tug'ildi. Otasi Umarshayx Mirzo temuriy avlodidan bo'lib, Farg'ona viloyatining hokimi bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining taniqli muallim va murabbiylari rahbarligida ta'lim va tarbiya olgan. Otasi Umarshayx Mirzo 1495 yilda vafot etgach, 12yoshida uning o'rniga taxtga o'tirdi. Andijonni Shayboniyxon egallagach, Zahiriddin Muhammad Bobur Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladi. Bu mamlakatda Kobul va Badahshon shahjarlarida o'z hokimiyatini barpo etdi. So'ngra Hindistonga yurish boshlab, u erda buyuk davlatga asos soldi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'lim-tarbiya haqida g'oyalarini o'zining quyidagi asarlarida bayon etgan: "Boburnoma", "Mubayyan", "Risolai validiya". Bobur Hindistonda madaniyat va ma'rifat o'rnatdi. U juda erta hayotdan ko'zyumgan bo'lsada o'zining ishlari bilan "Boburnoma" deb atalgan asari bilan tarixda unutilmas nom qozondi. Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida "Boburnoma" alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o'zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy - tarixiy, ilmiy - tabiiy va adabiy- lingvistik ma'lumotlar xazinasidir.



Zahriddin Muhammad Boburning ilm-ma'rifat haqidagi g'oyalari, axloq odob, yaxshilik, vafo, insonni xalqqa yaxshilik qiladigan qilib tarbiyalash, mehnat ahlini qadrlash, insonparvarlik, Vatandan judolik g'am, alam ekanligi,adolat haqidagi qarashlari, axloqiy-ta'limiy fikrlari hozirgi davr yoshalr tarbiyasida ham g'oyat ahamiyatlidir.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Alisher Navoiy (1441-1501). To'liq ismi – Nizomiddin Alisher Navoiy. U Hirotda tug'ilib, shu erda yashab ulg'ayadi. Bolaligidan adabiyot va badiiy ijodga muhabbatি baland edi, she'r tinglashni va o'qishni juda sevgan. Alisher Hirotda va Mashhadda o'qigan, mantiq, falsafa, musiqa, husnixat va boshqa fanlarni, arab, fors tillarini o'rgangan. 15 yoshida xalq orasida iste'dodli shoir sifatida tanilgan. Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazini talqin etadi. Uning asar qahramonlari jismonan ko'rkar, go'zal bo'lish bilan birgalikda ma'nani etuk, axloqan barkamol shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi. U o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quwatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'llini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi. Alisher Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan har bir fikr amaliy ahamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etadi. Alloma uzoq yillar davomida olib borgan hayotiy kuzatishlari va tajribasi asosida «Mahbub-ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yaratadi. Ushbu asarda «Hamsa» dostonining tarkibiy tuzilmasidan o'rinn olgan «Hayrat-ul-abror», shuningdek, «Nazm-ul-javohir» kabi ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarni mazmun jihatidan yanada boyitadi. Mutafakkir «Mahbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ohib bergen:

«Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni

yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman". Bu hildagi hamsuhbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko'rindik, har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va har tabaqaning ahvalidin bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan mahfiy sirlardan so'z ochmasinlar. Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi.

Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviyaxloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruwat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif berganidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan. Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga solidi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Adabdan muhabbatga bezak va pardoz etadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik etkazadi. Adabdan muhabbatga bezak va pardoz etadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik etkazadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat - buloqdir - suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir-naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir - urug'i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkizadi. Qanoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, sahovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy fazilatlarning odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi qanoat qo'rg'ondir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'liklardir - u erga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir - natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir-foydasи ehtiyyotkorlik urug'inining mevasi farovonlik». Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, alloma o'z davrida ilm olish tamoyillarini to'g'ri ko'rsatib, shuningdek, ta'lim tizimi mohiyatini ham yoritib bera

olgan. Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lif tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- maktab yoki madrasada tahsil olish;
- olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lif olish;
- mustaqil ravishda ilm o'rganish.

U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini to'ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o'tilgan xislatlarga ta'rif berish bilan birga ularga qaramaqarshi bo'lgan yomon illatlar to'g'risida so'z yuritadi va ulardan qutilish yo'llarini ham bayon qiladi. Alloma axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan: «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi». Alisher Navoiy asarlarida ilm odobi, jamiyat boshqaruv odobi,adolatli boshliq odobi masalalari yuqori o'rinda turgan. Ta'lif jarayonida Navoiy asarlaridan foydalanish natijasida talabalarda barcha ijobiliy axloqiy fazilatlar yuksaltirish mumkin. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lif-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida ham boshqa allomalarning asarlarida ifoda etilganidek shaxs tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga katta e'tibor beriladi. Yetuk insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng ifoda etiladi. Xususan, komil inson qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar - yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, rostgo'ylik, do'stlik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Sahovat, kamtarlik hamda olivjanoblikni esa eng ulug' insoniy fazilatlardan deb biladi. Alloma o'z asarlarida yuksak insoniy sifatlarni tarannum etar ekan, ularning eng muhimlari sifatida quyidagi xislatlarni qayd etadi ham mazkur xislatlarning har bir inson qiyofasida aks etishi hayotiy zaruriyat deya hisoblaydi: insoniylik,adolatlilik, mehnatsevarlik, saxovat va karam, mehr-muruwat, chin inchoniy muhabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik va boshqalar. Ayni vaqtda insonning takabburlik, molu dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik,johillik, ta'magirlik kabi salbiy xislatlardan xalos bo'lishini maqsadga muvofiq deb topadi. Abdurahmon Jomiy insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlar va shaxsda ularni shakllantirish masalalarini o'z asarlarida she'riy misralar orqali yanada ta'sirchan uslubda ochib berishga harakat qiladi. Yuqorida nomlari qayd etilgan asarlarda bayon etilgan fikrlar hayotiy xususiyatga egaligi bois asrlar davomida o'zining nazariy qimmatini saqlab qolishga muyassar bo'lmoqda.

Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining



pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni. Jaloliddin Davoniy sharq olimi, faylasufidir. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Davoniyning ilm-ma'rifat, ta'llim-tarbiya va axloq to'g'risidagi fikrlari ta'limtarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mukammallikka tomon qisqa yo'llarni oddiy qilib ko'rsatib bera olgan, kishilarning baxt-saodatli bo'lishi uchun bergen tavsiyalari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Davoniyning aqliy tarbiya, insoniy fazilatlarni tarkib toptirish borasidagi tarbiya usullari Sharq pedagogikasining qimmatli xazinasi bo'lib hisoblanadiki, bu tavsiyalardan biz ta'limtarbiya jarayonida foydalansak, milliy qadriyatlarimizning davom etishiga hissa qo'shamiz, ajdodlarning axloq to'g'risidagi fikrlarini inobatga olish natijasida axloqiylikning milliy tamoyillariga murojaat etgan bo'lamiz va u ta'lim-tarbiyani tom mano egallash va ulashishda eng munosib yo'l bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". - T.: "O'zbekiston", 2017.
2. B. Dolimov U "Jadidchilikning tamal toshi" "Jahon adabiyoti", 2010 yil, 1-son.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna. 1914 y. 41-son.7
4. R.E. Xoliqova. Turkiston chor rossiyasi mustamlakachiligi davrida T.: 2017 yil, 80-95 betlar.
5. F.O. Mirzayeva 2021-yil. "Pedagogika nazaryasi va tarixi".

